



20 23

YILLIK HISOBOT
ГОДОВОЙ ОТЧЕТ / ANNUAL REPORT

Soʻz boshi

“Oʻzbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining (keyingi oʻrinlarda – Kompaniya) 2023-yildagi faoliyati boʻyicha jamlangan hisobotini eʼtiboringizga havola qilamiz. Biz katta mamnuniyat va faxr ila ushbu hujjatni, shuningdek, Kompaniyaning biznes-natijalarini barcha manfaatdor tomonlarga taqdim etish orqali investorlar va jamoatchilik oldidagi ochiqligimizni namoyon etamiz. Kompaniyaning qayd etilgan davrdagi amaliy holatini har tomonlama aks ettiruvchi hisobot asosida butun Oʻzbekistonning telekommunikatsiya tarmogʻi rivojlanishiga doir tasavvurni shakllantirish mumkin.

2023-yil ilgʻor texnologiyalarni joriy qilishga bagʻishlangan boʻlib, ular tarmoqda egallagan oʻrnimizni yanada mustahkamlashga xizmat qilib, muntazam innovatsiyalarga tayyorligimizni koʻrsatib berdi. Shu bilan birga, biz tayanch stansiyalarini modernizatsiya qilish va qayta qurish boʻyicha yirik loyihani amalga oshirish doirasida abonentlar bazasi va telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirishga oid ishlarni davom ettirdik.

Xususan, Internet tarmogʻiga optik tolali ulanish – zamonaviy infratuzilmani yaratish borasida asosiy yutuqlarimizdan biriga aylandi. Ayni vaqtda bu isteʼmolchilarning yuqori sifatli keng polosali Internetga ulanishini taʼminlash uchun asosiy texnologiyadir. Hozirda keng polosali Internet tarmogʻiga ulangan ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlar qamrovi 100 foizni, aholi yashash maskanlari boʻyicha esa – 93 foizni tashkil qiladi.

Oʻtgan yil biznesimizni diversifikatsiya qilishning muhim bosqichi boʻldi. Biz telekommunikatsiya bilan bogʻliq yangi tarmoqlarni qamrab olish evaziga yangi mahsulotlarni yaratish va yangi xizmatlarni koʻrsatish ustida ishlamoqdamiz. Masalan, 2023-yilda Kompaniya tomonidan taqdim etilgan “TelecomTV” platformasi abonentlarga yangi avlod interaktiv televideniyesidan foydalanish imkonini beradi. Ushbu innovatsion yechim raqamli kelajak sari muhim

qadam boʻlib, foydalanuvchilar tomonidan yuqori baholandi. “TelecomTV”dagi xilma-xil kontentdan allaqachon zavq olayotgan minglab abonentlar undan foydalanish qulayligini qayd etmoqda.

Oʻzbekiston geymerlari uchun “PUBG Mobile” oʻyini serverlarining muvaffaqiyatli mahalliyashtirilishi alohida eʼtiborga loyiq. “Oʻzbektelekom” AK “Tencent CDN” serverlarini mahalliyashtirish boʻyicha loyihani amalga oshirgan Markaziy Osiyodagi birinchi kompaniyaga aylandi. Bu natija mahalliy oʻyinlarni uchun yangi imkoniyatlarni yaratib, oʻyinlar bozoridagi oʻrnimizni mustahkamladi.

Hisobot yilida Kompaniya IPO oʻtkazib, 5 542 046 dona oddiy aksiyalarni auksion savdosiga chiqardi. Har bir aksiya 6 000 soʻm narxda, yaʼni donasi uchun 9 135 soʻm ichki narxdan 35 foizlik chegirma bilan taklif etildi. IPO jarayoni obunani sezilarli darajada oshirib, investorlarning yuqori talabi sababli uni 131 foizga yetkazdi.

2023-yil 1-2-choragi uchun oʻtkazilgan Speedtest Intelligence maʼlumotlari tahliliga asosan Kompaniya “Eng tezkor mobil Internet” mukofotiga sazovor boʻldi

Kompaniya IPO natijasida qariyb 11 000 chakana investorni jalb qildi. Bu orada, Jett ilovasi yordamida masofadan turib IPO uchun 15 000 dan ortiq chakana hisobvaraqlar ochildi. Chakana investorlar tomonidan 2 milliondan ortiq yangi aksiya sotib olingan bo'lib, bu umumiy mahsulotning taxminan 40 foizini tashkil qiladi. Korporativ investorlar tomonidan xarid qilingan 3,5 million aksiya taklifning taxminan 60 foizni tashkil qiladi.

IPO'dan olingan mablag'lar mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish va kengaytirishga yo'naltiriladi hamda Kompaniyaning bozordagi o'rnini mustahkamlashga va uning operatsion imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Xalqaro tadqiqotlar Kompaniya tomonidan amalga oshirilgan qadamlarning samarasini tasdiqlamoqda. 2023-yil 1-2-choragi uchun o'tkazilgan Speedtest Intelligence ma'lumotlari tahliliga asosan Kompaniya "Eng tezkor mobil Internet" mukofotiga sazovor bo'ldi. Ushbu mukofotlar xizmatlarimizning yuqori sifatiga dalolat bo'lib, muntazam innovatsiyalar hamda foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga sodiqligimizni qayd etadi.

Tabiiyki, Kompaniya faoliyatining o'zimiz hamda salohiyatli investorlar va aksiyadorlar e'tibor qaratadigan eng muhim ko'rsatkichlari – moliyaviy-iqtisodiy faoliyatga oid ma'lumotlardir. Ular bilan batafsil hisobotda tanishib chiqishingiz mumkin. Biz aksiyadorlar va jamoatchilik tomonidan

zimmamizga yuklangan majburiyatlarni bajarishda, telekommunikatsiya tarmog'ining har qanday segmentini rivojlantirish bo'yicha bozorning dolzarb ehtiyojlariga o'z vaqtida javob berishda hamda mijozlarning servis va xizmat ko'rsatish sifatiga doir talablarini qondirishda davom etamiz.



Boshqaruv Raisining murojaati

Hurmatli xonimlar va janoblar!

E'tiboringizga "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining 2023-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi to'g'risidagi yillik hisobotni taqdim etishga ijozat bering. Unda Kompaniya faoliyatining muhim yo'nalishlari va yangi xizmatlarni joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, aholining turmushi sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida mamlakatimizda "Elektron hukumat" tizimi yaratilayotgan bo'lib, ushbu tizim davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirishni

o'z ichiga oladi. Mazkur o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida raqamli iqtisodiyotni, elektron hukumatni va axborot tizimlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-son qarori bilan tartibga solinadi.

2020-yil 5-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-son qarori qabul qilingan. Strategiya respublikada raqamli sanoatni jadal rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tasdiqlangan. Aynan ushbu Strategiyaga muvofiq "O'zbektelekom" AK tomonidan mavjud infratuzilmaning tizimli tahlili o'tkazildi

va tarmoqni rivojlantirishda sifatli o'zgarishlar bo'yicha qarorlar qabul qilindi, uskunalarni bosqichma-bosqich yangilash bo'yicha batafsil reja ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son qaroriga muvofiq kompaniya tomonidan mamlakatimizdagi barcha telekommunikatsiya tarmoqlari modernizatsiya qilinmoqda. Mis aloqa liniyalaridan optik tolali aloqa liniyalariga o'tilmoqda – butun O'zbekiston bo'ylab, jumladan chekka hududlarda kabel yotqizilmoqda. 60 ming kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi. UMTS/LTE standartiga muvofiq holda mobil aloqa qamrovini kengaytirish loyihasi davom etmoqda.

Kompaniya mamlakatdagi butun telekommunikatsiya tarmog'i modernizatsiyasini amalga oshirmoqda. 60 ming kilometrdan ortiq yangi optik tolali aloqa liniyalari tortildi. Samarqand va Toshkent shaharlari 5G tarmog'i bilan to'liq qamrab olingan.

Shuningdek, hisobot yilida mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar muvaffaqiyatli bajarildi. Aholiga yuqori tezlikdagi Internet xizmatlarini ko'rsatishga mo'ljallangan qurilmalarning umumiy sig'imi 4,8 million portdan oshdi. Bu muhim qadamlar ijtimoiy soha obyektlarining 100 foizini, shuningdek, respublikadagi eng olis hududlarini qamrab oluvchi aholi punktlarining 93 foizini Internet bilan ta'minladi.

2023-yil boshida Kompaniya mobil aloqa tarmog'ini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli loyihani ishga tushirdi. Ushbu loyiha doirasida "UZTELECOM" O'zbekiston bo'ylab 6 mingdan ortiq yangi tayanch stansiyalarini ishga tushirdi. Bu esa mobil aloqaning maksimal barqarorligi va tezligini ta'minladi. Masalan, birgina Samarqand shahrida 1000 tadan ortiq yangi tayanch stansiyalari ishga tushirildi. Eng muhim yutuqlardan biri – Toshkent va Samarqand shaharlari 5G tarmog'i bilan qamrab olingani bo'ldi. Mobil tarmoqning texnik imkoniyatlarini yangilash ishlari davom etmoqda.

2023-yil dekabr oyida "UZTELECOM" "VoLTE" texnologiyasini bosqichma-bosqich joriy etishni boshladi. "VoLTE" texnologiyasi yuqori darajadagi aniqlik va tarmoq resurslaridan samarali foydalanish orqali ovozli qo'ng'iroqlar sifatini yaxshilaydi. Bugungi kunda ushbu texnologiyani rivojlantirish bo'yicha tegishli ishlar butun mamlakat bo'ylab olib borilmoqda va tez orada istalgan fuqaro "VoLTE" texnologiyasi orqali ovozli qo'ng'iroqlarni amalga oshirishi mumkin bo'ladi.

Modernizatsiya loyihasi faoliyatimizni yanada rivojlantirish, mobil tarmoq qamrovi darajasini kengaytirish va shu orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.

Ushbu ijobiy o'zgarishlarning guvohi bo'lgan Kompaniya abonentlari ketma-ket uchinchi yil O'zbekistondagi barcha kompaniyalar orasida yetakchi o'rinni saqlab kelayotgan "UZTELECOM" brendiga ishonch bildirmoqda. 2023-yilda "Yil brendi" tanlovining "Aloqa" yo'nalishidagi g'olibligi buning yana bir tasdigi bo'ldi. Lekin biz bu bilan to'xtab qolmaymiz va xizmatlarimiz sifatini oshirishda davom etamiz.


N.N. Xasanov
Boshqaruv Raisi





 **UZTELECOM**

Asosiy ko'rsatkichlar



Optik tolali aloqa liniyalari
uzunligi

233,8
ming km

+67 ming km

Magistral aloqa tarmog'i
sig'imi

61,1
Tbit/s

+6,7 Tbit/s

Xalqaro paketli
kommutatsiya markazi

3 600
Gbit/s




"O'zbektelekom" AK
"IPv6 Innovation Award"
mukofotiga sazovor bo'ldi.



"O'zbektelekom" AK –
"2022-yil brendi" g'olibi.

2023-yildagi asosiy voqealar

02





Kompaniyaning qisqacha tarixi

03



1992

Hududiy aloqa boshqarmalari negizida pochta va telekommunikatsiyalar davlat korxonasi tashkil etildi. Shuningdek, "O'zbektelekom" davlat elektr aloqa korxonasi konserni tashkil etildi.

1995–1996

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish boshlandi, "Toshkent Taksofoni", "Sirdaryo Telekom" aksiyadorlik jamiyatlari, "Buzton", "Chirkom" qo'shma korxonalari, "O'zbektelekom International" AK tashkil etildi.

1997

Aloqa vazirligi O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligiga o'zgartirilib, mustaqil boshqaruv organi tashkil etildi. "Mahalliy telekom" va "Xalqaro telekom", "Toshkent shahar telefon tarmog'i", "Toshkent Telekom", "Andijon Telekom", "Namangan Telekom" aksiyadorlik jamiyatlari va boshqalar ochildi.

2000

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 30-iyundagi "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etishning vazifalari to'g'risida"gi 253-son qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatga muvofiq "Mahalliy telekom" AJ va "Xalqaro telekom" AJ negizida "O'zbektelekom" aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi.

Shuningdek, "Qoraqalpog Telekom", "Buxoro Telekom", "Navoiy Telekom", "Xorazm Telekom", "Toshkent telefon-telegraf stansiyasi" va "Shaharlararo aloqa korxonasi" aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi qoshida "Intal Telekom" filiali tashkil etildi.

2001–2002

"O'zbektelekom" AK tarkibiga kiruvchi kompaniyalarni filiallar sifatida birlashtirish yo'li bilan aksiyadorlik jamiyatlari qayta tashkil etildi (xolding tuzilmasidan operatorlik kompaniyaga aylantirish). Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 27-dekabrda "O'zbektelekom" aksiyadorlik jamiyatini xususiyashtirishga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 488-son qarori bilan "UzNet" sho'ba idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i uning barcha funksiyalari va vazifalari bilan birgalikda "O'zbektelekom" AK bilan filial sifatida birlashtirildi.

2003

"O'zbektelekom" AK Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq "O'zbektelekom" AKning muhandislik-texnik markazi tashkil etildi.

Yangi faoliyat turi – CDMA-450 standartida simsiz radioaloqa xizmatlarini ko'rsatish o'zlashtirildi. Shu maqsadda "O'zbektelekom Mobayl" filiali tashkil etilib, uning asosiy vazifasi milliy simsiz aloqa tizimini rivojlantirishdan iborat bo'ldi.

2003-yildan buyon Samarqand va Jizzax viloyatlarida simsiz radioaloqa tizimi ishlamoqda.

2004

2004-yil 6-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari masalalari kompleks komissiyasining majlisi bo'lib o'tdi. 2004-yil 26-may kuni "O'zbektelekom" AK Kuzatuv kengashining majlisi bo'lib o'tdi. "UzNet AK" filiali "Intal Telekom" filiali bilan birlashtirildi. Yangi tashkil etilgan filial "UzNet" deb nomlandi.

2004-yil dekabr oyidan boshlab "O'zMobayl" filiali CDMA-450 standartidan foydalangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida simsiz abonent radioaloqa tarmog'ini kengaytirdi.

O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan O'zbekistonning istalgan nuqtasida istalgan telefondan oldindan to'lov kartasidan foydalangan holda xalqaro qo'ng'iroqlarni amalga oshirish imkonini beruvchi intellektual xizmatlar uchun 805 ta nogeografik ulanish kodlari joriy etildi.

2005

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi "Ma'lumotlarni uzatish xizmatlarini rivojlantirish va "O'zbektelekom" AKni xususiyashtirishga tayyorlash bo'yicha faoliyat to'g'risida"gi PQ-149-son qaroriga muvofiq "O'zPAK "AMUDD" O'zbektelekom "UzNet AK" filialiga qo'shilishi natijasida "O'zbektelekom" AK filialiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-sentabrdagi 453-son qaroriga muvofiq 2004-yil oxiri – 2005-yil boshida "O'zbektelekom" AK va uning filiallari tomonidan "ToshTTS" va "TSHTT"ning "VoIP" shluzi kengaytirildi. Ikki ta qo'shimcha "VoIP" ulanishini tashkil etish bo'yicha ishlar olib borildi, bu esa universal oldindan to'lov kartalari yordamida xalqaro telefon xizmatlari va Internet aloqalarini taqdim etish imkonini berdi.

2006

"O'zbektelekom" AK "Uznet" filialida IEEE 802.16–2004 WiMax standartining pilot loyihasini amalga oshirish ishlari boshlandi.

"O'zbektelekom" AK o'quv jarayonini takomillashtirish va mutaxassislarning malakasini oshirish maqsadida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining bevosita ishtirokida "Muhandislik-texnika markazi" ixtisoslashtirilgan filiali tashkil etildi.

Axborot texnologiyalari universiteti (ITU) tashkil etildi.

Respublikaning barcha viloyat markazlarini qamrab olgan holda videokonferensaloqa xizmati joriy etildi.

2007

"O'zbektelekom Mobayle" filiali CDMA 450 standarti asosida respublikaning barcha hududlarida mobil aloqa va ma'lumotlar uzatish xizmatlari ko'rsatilishini boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 23-yanvardagi qaroriga muvofiq Xitoy taraqqiyot banki va "Huawei Technologies" kompaniyasi bilan hamkorlikda "O'zbektelekom" AK telekommunikatsiya tarmoqlarini lizing asosida rekonstruksiya qilish va rivojlantirish investitsiya loyihasi amalga oshirildi.

Toshkent telekommunikatsiya tarmog'i NGN "Kelajak avlod kommunikatsiyalari" texnologiyalari asosida modernizatsiya qilindi va kengaytirildi. Videotelefoniya, ma'lumotlarni uzatish va internetga ulanish xizmatlari yo'lga qo'yildi.

2010

"O'zbektelekom" AK Xalqaro paketli kommutatsiya markazi quvvati ikki barobarga oshirildi va 2,5 Gbit/sekundga yetdi.

Provayderlarga uchun internet xizmatlari uchun tariflar 1510 dollardan 849 dollargacha pasaytirildi.

2011

Rebranding amalga oshirildi va 2011-yilda yangi UZTELECOM™ brendi va "O'zbektelekom" AK sub-brendlari – UZMOBILE™ va UZONLINE™ ning keng ko'lami targ'iboti amalga oshirildi.

2012

1576 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyalarini yotqizish va qurish ishlari yakunlandi. Shaharlararo, xalqaro va intrazonal aloqa kanallarining umumiy uzunligi 276,2 million kanal/km ni tashkil etdi, shundan 263,5 million kanal/km optik tolali aloqa liniyalaridir.

"O'zbektelekom" AK xalqaro paketli kommutatsiya markazining sig'imi 4 barobarga oshirildi va 40 Gbit/s gacha yetkazildi.

Viloyatlar, tuman markazlari va shaharlarni raqamli telekommunikatsiya tarmog'i bilan qamrab olish darajasi 100 foizni tashkil etdi. Qishloq aholi punktlarini telekommunikatsiya tarmog'i bilan qamrab olish darajasi 95,7 foizni tashkil etdi. "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha faoliyat yurituvchi 94 ta savdo ofislari foydalanishga topshirildi.

Keng polosali Internet abonentlari soni 52 foizdan oshdi.

Respublika aholi punktlarining CDMA-450 standartidagi simsiz radioaloqa bilan qamrovi 71,3 foizga yetdi. "IP-telefoniya" videotelefoniya va "IP-televideniye" xizmatlaridan foydalanuvchilar soni tez sur'atlar bilan o'sib bordi.

2013

2 ming 257,4 kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari foydalanishga topshirildi. Shaharlararo, xalqaro, hududiy va mahalliy aloqa kanallarining umumiy uzunligi 381,3 million kanal/kilometrni tashkil etdi.

Respublikada CDMA-450 standartidagi mobil aloqa tarmog'ining qamrovi zonasi 74 foizni tashkil etdi. Qishloq aholisini telekommunikatsiya tarmog'i bilan qamrab olish darajasi 96 foizni tashkil etdi.

Keng polosali Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni 62 foizga, "IP-TV" xizmatidan foydalanuvchilar soni 4,3 barobarga, mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilar soni 72 foizga oshdi.

Internetga ulanish tezligi 30 foizga oshirildi va 10 Gbit/sekunddan yuqori tezlikka erishildi.

Internet-provayderlar uchun tariflar narxi 1 Mbit/s uchun 1,3 barobarga pasaytirildi.

CDMA-450 standartidagi simsiz tarmoqning qamrovi zonasini oshirish maqsadida 140 ta tayanch stansiyalari o'rnatildi, CDMA-450 standartidagi mobil aloqa qamrovi zonasi respublika aholisining 71 foizini tashkil etdi.

"O'zbektelekom" AK tarmog'ida "Yagona darcha" tamoyili bo'yicha faoliyat yurituvchi 163 ta savdo ofislarining barchasi ish boshladi.

2014

Xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligi 151,3 foizga oshib, 15,5 Gbit/s ga yetdi.

Xalqaro paketli kommutatsiya markaziga ulangan internet-operator va provayderlarning tariflari 276,27 dollarni tashkil etdi, ya'ni 11,6 foizga pasaydi.

Bo'zatov-Qo'ng'iro't, G'uzor-Boysun, Denov-Uzun-Sharg'un, Jasliq-Qoraqalpog'iston, Mo'ynoq-Qibla Ustyurt, Uzun-Tojikiston chegara uchastkalarida 2 000 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa kabellari yotqizildi. Videotelefoniya, Internet-televideniye, yuqori tezlikdagi Internet, "HDTV" kanallari va boshqa konvergent xizmatlarni taqdim etuvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda keng polosali ulanishga mo'ljallangan optik tolali aloqa liniyalari qurilishi amalga oshirildi. Keng polosali Internetga ulanish xizmatlarini ko'rsatish uchun o'rnatilgan portlar soni 640 mingga yetdi, foydalanilgan portlar soni 135,1 foizga oshdi.

Respublika bo'yicha 26 ta zamonaviy kommutatsiya moslamalari ishga tushirilib, bu telefon raqamlari sig'imini sezilarli darajada oshirdi.

Davlatimiz rahbarining 2014-yil 2-dekabrda "Xitoy Davlat taraqqiyot banki ishtirokida O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Investitsiya loyihasining umumiy qiymati 117,6 million dollarni tashkil etdi. Ushbu loyihalar doirasida ma'lumotlar uzatish magistral tarmoqlarining quvvati xalqaro yo'nalishda – 10 barobar (100 Gbit/s gacha), viloyat markazlarida – 4 barobar (40 Gbit/s gacha), tuman markazlarida esa 10 barobarga (10 Gbit/s gacha) oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, mazkur loyihani amalga oshirish doirasida FTTx texnologiyasi asosida keng polosali optik tarmoqlarni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bu Toshkent shahridagi abonent aloqa liniyalari 69 120 ta portga keng polosali ma'lumotlarni uzatish uskunasini o'rnatish bilan modernizatsiya qilish uchun zarur.

"O'zbektelekom" AK Yagona aloqa markazini amalga oshirish loyihasi doirasida foydalanuvchilar murojaatlariga tezkor javob berish, shuningdek, davlat organlari va tadbirkorlik subyektlariga axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish maqsadida respublika bo'ylab 13 ta "Call-markaz" tashkil etildi. 2014-yil 1-dekabrda boshlab butun respublika bo'ylab "Call-markaz" xizmatining "1084" yagona raqami joriy etildi.

2015

1 800 kilometrdan ortiq OTAL qurilishida kanal shakllantiruvchi uskunalar o'rnatildi, jumladan, respublika bo'ylab 105 116 ta portga yetkazib berish, 4 000 dan ortiq ma'muriy va maishiy obyektlar uchun FTTB tarmoqlarini rivojlantirish ishlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasining tarixiy-madaniy meros obyektlari hududida, shuningdek, sayyohlar to'planadigan joylarda: aeroportlar, vokzallar, yirik savdo markazlari, bozorlar, avtovokzallar va boshqalarda "Wi-Fi" tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Xorazm, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridagi "Wi-Fi" zonasi qamrovi 25 ta obyekt va 441,8 ming kvadrat metrdan ortiq maydonni ichiga olgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi bilan birgalikda infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi.

- umumta'lim maktablarini Milliy ta'lim elektron kutubxonasi resurslariga ulash maqsadida 702 ta ta'lim muassasasiga OTAL yotqizish va faol uskunalar o'rnatish orqali aloqa kanallari yaratildi. Ta'lim muassasalariga qadar jami 585 km dan ortiq optik tolali aloqa liniyalari tortib o'tkazildi;
- milliy elektron ta'lim tarmog'iga ulanish uchun 200 ta kasb-hunar kolleji OTALni yotqizish va faol uskunalarni o'rnatish orqali internet tarmog'iga ulandi; 796 km dan ortiq optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi;
- "Elektron hukumat" tizimi doirasida 198 ta viloyat, shahar va tuman hokimliklari optik aloqa kanallari orqali "O'zbektelekom" AKga ulandi;
- jamoat transporti samaradorligini oshirish maqsadida 90 kilometrga yaqin optik tolali aloqa liniyalari tortildi.

2016

Kanal shakllantirish uskunalari o'rnatildi, jumladan, FTTB texnologiyasidan foydalangan holda tarmoqlarni rivojlantirish bilan 2 313 km dan ortiq OTAL yotqizildi.

"O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarida "Wi-Fi" tarmoqlarini o'rnatish uchun 40 ta obyekt belgilandi.

Qishloq joylarda (jumladan, aholi kam va borish qiyin bo'lgan hududlarda) joylashgan obyektlarga 1 138,1 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa kabellari yotqizildi, ijtimoiy infratuzilma obyektlari, jumladan, shifoxona va poliklinikalar, ichki ishlar bo'limlari, ma'muriy-hududiy muassasalarda 37 344 ta port o'rnatildi.

485 ta ko'p standartli tayanch stansiyalari o'rnatildi va birlashtirildi.

2017

Kanal shakllantirish uskunalari o'rnatish, jumladan, FTTB texnologiyasi asosida tarmoqlarni rivojlantirish bilan 12,1 ming kilometrga yaqin OTAL qurilishi yakunlandi.

10 080 ta ko'p standartli tayanch stansiyalari o'rnatildi va birlashtirildi. Qishloq joylarda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun umumiy sig'imi 52 960 CPU portiga ega 533 ta tayanch stansiyasi o'rnatildi.

Qishloq joylarda joylashgan obyektlarga (shu jumladan, aholi kam va borish qiyin bo'lgan hududlarga), shuningdek, ijtimoiy infratuzilma obyektlariga 2102,2 kilometr optik tolali aloqa liniyalari tortildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-sentabrdagi "Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpingning O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish va hamkorlik hamda ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4131-son Farmoniga muvofiq Jizzax EIZ hududida "Huawei Technologies Co., Ltd." (Huawei), "ZTE Corporation" (ZTE) va "Jiangsu Zhongtian Technology Co., Ltd." (ZTT) kompaniyalari joylashdi. Qo'shma korxonalar tashkil etilib, ularda telekommunikatsiya uskunalari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi amalga oshirildi.

2018

"Xalqaro paketli kommutatsiya markazlarini kengaytirish" loyihasi doirasida tegishli markazning sig'imi 120 Gbit/sekunddan 1 200 Gbit/sekundgacha 10 barobardan ortiq oshirildi.

Simli Internet xizmatlarini ko'rsatishda barcha tarif rejalaridagi tezlik ko'rsatkichidan "gacha" ko'rsatkichi olib tashlandi va bundan buyon xizmat ko'rsatish tezligi kafolatlandi.

Belgilangan tezlikda cheksiz trafikka ega tariflar narxlar 2 baravardan ortiq pasaytirildi.

"O'zbekiston Respublikasi hududlarida keng polosali ulanish tarmoqlarini joriy etish" loyihasi doirasida respublika bo'ylab umumiy sig'imi 201,2 ming portdan ortiq bo'lgan Internetga keng polosali ulanish qurilmalari o'rnatilib, foydalanishga topshirildi.

2019

"IPTV" xizmatlarini taqdim etishda "IPTV+Video on Demand" formatidagi yangi xizmat joriy etildi.

Uz-IX piring tarmog'i ishga tushirildi.

Kompaniya xizmatlaridan qulay foydalanish imkonini beruvchi MyUZTELECOM mobil ilovasi ishga tushirildi.

IVI kompaniyasi bilan birgalikda onlayn kinoteatr xizmati joriy etildi.

Respublika bo'ylab 12 ming km optik tolali aloqa liniyalari qurilishi amalga oshirildi.

3 751 ta yangi tayanch stansiyalari qurilib foydalanishga topshirildi.

Mobil aloqa abonentlari soni 5 million kishiga yetdi.

2020

Respublika bo'yicha 37,5 ming km optik tolali aloqa liniyalari qurildi.

Respublika bo'ylab keng polosali ulanish portlari soni ikki barobardan ziyod ko'payib, 2,3 milliontani tashkil etdi.

Mobil aloqa tayanch stansiyalari soni 18 317 taga yetdi.

Noyob to'lov tizimiga ega UNITS tariflarining innovatsion paketi joriy etildi.

Mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchi abonentlar bazasi 7 million kishini tashkil etdi.

UZTELECOM savdo belgisi "Iste'molchilar tanlagan internet-provayderlar orasida yil brendi" nominatsiyasida g'olib bo'ldi.

UZTELECOM mobil aloqa tarmog'i negizida birinchi marta MVNO (mobil virtual tarmoq operatori) operator xizmatlari ishga tushirildi.

2021

Xalqaro axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning umumiy tezligi 1 800 Gbit/sekundgacha oshirildi.

50 575 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyalari o'tkazildi. Ushbu liniyalarning umumiy uzunligi 122,5 ming km, optik tolali aloqa liniyalari bilan qamrab olish darajasi aholi punktlarining 57 foizini tashkil etdi.

Mobil aloqa xizmatlarini rivojlantirish uchun 2021 yilda 902 ta qo'shimcha tayanch stansiyasi o'rnatilib, ularning umumiy soni 19 233 taga yetdi.

O'zbekiston bo'ylab 3,4 million xonadonga keng polosali internetdan foydalanish imkoniyati taqdim etilgan.

Aloqa kanallarining uzunligi, jumladan, shaharlararo, xalqaro va zonal optik tolali aloqa liniyalari 197,13 million kanal/kilometrga ga oshdi.

Magistral transport tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyati 42,4 Tbit/s ga yetdi.

Iste'molchilarning ovoz berishi natijalariga ko'ra, "UZTELECOM" aloqa sohasida "Yil brendi" deb topildi.

Keng polosali Internetdan foydalanuvchilar soni 40 foizga oshib, 1,4 million obunachiga yetdi.

Xalqaro paketli kommutatsiya markaziga ulangan operator va provayderlar uchun 1 Mbit/s tezlikdagi tashqi Internet-kanalning narxi 25 foizga, ya'ni 40 043,14 so'mdan 30 045,00 so'mga arzonlashtirildi.

"Uptime" instituti "UZTELECOM" bulutli ma'lumotlar markazini III darajali xalqaro dizayn hujjatlari tasnifi sertifikatiga loyiq deb topdi. Bu "UZTELECOM" bulutli ma'lumotlar markazining ishonchlilik darajasi "Tier III Uptime Institute" xalqaro tasniflash tizimiga mos kelishini, ma'lumotlar markazi infratuzilmasi N+1 formulasi bo'yicha zaxiralanganligini, xatolarga tolerantlik koeffitsienti esa, 99,982 % ni tashkil etishini tasdiqlaydi.

2022

Germaniyada bo'lib o'tgan tadbirda kompaniya "MDHdagi eng yaxshi rivojlanayotgan hududiy operator" deb topildi.

2022-yilda "Optik tolali aloqa liniyalarini qurish" loyihasi doirasida 44,13 ming km uzunlikdagi liniya qurilib, aholi punktlarining internet bilan qamrab olinishi darajasini 86 foizga yetkazish imkonini berdi.

2022-yilda tayanch stansiyalarning umumiy soni 20 420 taga yetib, aholi punktlarining mobil aloqa xizmatlari bilan qamrab olinishi darajasi 91 foizni tashkil etdi.

Xalqaro paketli kommutatsiya markaziga ulangan operator va provayderlar uchun 1 Mbit/s tezlikdagi tashqi Internet kanalining narxi 30 037,88 so'mgacha pasaytirildi.

Buxoroda Google kesh-serveri ishga tushirildi.

2022-yil yakuniga ko'ra, kompaniya xodimlarining umumiy soni 17 747 kishini tashkil etib, shundan ayollar 26 foizini (4 595 nafar), 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar esa 28 foizini (4 906 nafar) tashkil etdi.

Toshkent aglomeratsiyasi "UZTELECOM" tomonidan taqdim etilayotgan mobil aloqa va mobil Interneti bilan to'liq ta'minlangan.

Kompaniya profili

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasidagi eng yirik aloqa operatori bo‘lib, o‘z tarmog‘i bilan butun mamlakat hududini qamrab oladi. Shu bilan birga, O‘zbekistondan tashqarida ham xizmat ko‘rsatuvchi Markaziy Osiyodagi eng yirik aloqa operatorlaridan biri hisoblanadi.

“O‘zbektelekom” AK respublikamizda axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun boy infratuzilma resurslariga ega. So‘nggi yillar


davomida kompaniya o‘zining texnologik imkoniyatlarini sezilarli darajada mustahkamlash va kengaytirish bilan birgalikda, telekommunikatsiya tarmog‘ining asosiy qismini modernizatsiya qildi. Bugungi kunda kompaniyaning tarmoq infratuzilmasi dunyoning istalgan nuqtasidan millionlab iste‘molchilarni ulash imkonini beradi.

Kompaniya qo‘shni davlatlardagi aloqa operatorlari tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro kirish imkoniyatiga ega va xalqaro

kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi, ular bilan birgalikda xorijiy operatorlarga trafik tranziti va istalgan sig‘imdagi xalqaro raqamli kanallarni ijaraga berish xizmatlarini ko‘rsatadi.

“O‘zbektelekom” AK aloqa sohasida Mintaqaviy Hamdo‘stlik davlatlarining telekommunikatsiya operatorlari kengashining a‘zosi bo‘lib, qator xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etadi.

Bizning maqsadimiz – butun O‘zbekiston bo‘ylab va boshqa mamlakatlarda eng zamonaviy va sifatli aloqa xizmatlarini taqdim etish.



“O‘zbektelekom” AK ustav kapitali

282 644 329 aksiyalar



5,45% yuridik va jismoniy
shaxslar ulushi


94,55% davlat
ulushi

Bugungi kunda Kompaniyaning tarmoq infratuzilmasi dunyoning istalgan nuqtasidan millionlab iste'molchilarni ulash imkoniyatini taqdim etadi

14 ta hududiy
filial

6 ta ixtisoslashtirilgan
filial

> 3 ming mamlakat bo'ylab
savdo nuqtalari soni



“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 28-iyundagi “Telekommunikatsiya sohasida boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2647-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlarining 2000-yil 30-iyundagi 253-son “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

O'zbekistondagi operatorlar uchun xizmatlar

- xalqaro Internet-kanallardan foydalanishni ta'minlash;
- DWDM va CWDM aloqa kanallarini ijaraga berish;
- kabel kanallarini ijaraga berish;
- mahalliy va xalqaro sheriklar uchun ovozli aloqa;
- kolokatsiya (colocation);
- UZ-IX foydalanuvchilararo tarmog'i;
- Hamkorlik dasturi (VISP) doirasida telekommunikatsiya infratuzilmasini taqdim etish;
- Mobil operatorlar tomonidan RAN infratuzilmasidan birgalikda foydalanish.

Jismoniy shaxslar uchun xizmatlar (B2C)



Mobil aloqa:

- GSM / CDMA mobil aloqa xizmatlari;
- rouming xizmatlarini ko'rsatish;
- mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamlarini ko'chirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.



Keng polosali ulanish xizmatlari:

- Internetga kirish xizmatlari;
- IP-telvideniye;
- OTT-xizmatlari.



An'anaviy xizmatlar:

- mahalliy va xalqaro telefon xizmatlari;
- shaharlararo va xalqaro telegraf xizmatlari;
- IP-telefoniya.



Call-markaz xizmatlari:

- virtual ofis;
- telefon raqamlari haqida ma'lumot xizmatlari;
- tabriklar;
- ob-havo;
- aniq vaqt;
- ertaklar.

Yuridik shaxslar uchun xizmatlar (B2B)



Mobil aloqa:

- GSM/CDMA korporativ mobil aloqa xizmatlari;
- Rouming xizmatlarini taqdim etish;
- mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamlarini uzatish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.



Keng polosali ulanish xizmatlari:

- Internetga kirish xizmatlari;
- shaxsiy virtual tarmoqlar;
- IP-telvideniye.



Bulutli xizmatlar:

- VDC va VDI xizmati;
- birgalikda joylashtirish xizmati;
- veb-xosting.



An'anaviy xizmatlar:

- mahalliy va xalqaro telefon aloqa xizmatlari;
- shaharlararo va xalqaro telegraf aloqa xizmatlari;
- IP-telefoniya;
- SIP-trunk xizmati.



Call-markaz xizmatlari:

- outsorsing;
- abonentlarga avtomatik qo'ng'iroq;
- virtual ofis;
- telefon raqamlari haqida ma'lumot xizmatlari;
- 0-800 raqamiga bepul qo'ng'iroq.